

27/OSAGO-005 - sonli
Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini
majburiy sug'urta qilish
SHARTNOMASI

Nukus sh.

2022 y. «10» yanvar

“SEMURG INSURANCE” MCHJ QK, keyingi o‘rinlarda «Sug‘urtalovchi» nomidan 08.08.2021 yilda berilgan № 111-sonli ishonchnoma asosidan harakat qiluvchi “NUKUS” sug‘urta markazi direktori Tureshev P.P., bir tomondan “QORAQALPOQYULKUKALAM” keyingi o‘rinlarda, «Sug‘urta qildiruvchi» nizom asosida harakat qiluvchi Urazov R.S. ikkinchi tarafdin, quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligining majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risidagi» Qonuniga asosan transport vositasidan foydalanishda transport vositalari egalarining jabrlanuvchilar hayoti, sog‘ligi va (yoki) mol-mulkiga etkazilgan zararining o‘rnini qoplash bo‘yicha fuqarolik javobgarligi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy manfaatlari majburiy sug‘urta ob‘ektidir.
- 1.2. Ushbu shartnomaga kiritilmagan shartlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli qaroriga ilova qilingan qoidalarga amal qilinadi.

2. SUG‘URTA HODISASI

- 2.1. Transport vositasidan foydalanishda jabrlanuvchining hayoti, sog‘ligi va (yoki) mol-mulkiga etkazilgan, sug‘urta qildiruvchining sug‘urta tovonini amalga oshirishiga sabab bo‘ladigan zarar bo‘yicha javobgarligi sug‘urta qilingan, sug‘urta qildiruvchi yoki boshqa shaxsning fuqarolik javobgarligining yuzaga kelishi sug‘urta hodisasi hisoblanadi.

3. ISTISNOLAR

- 3.1. Quyidagilar oqibatida transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligining yuzaga kelishi sug‘urta hodisasi hisoblanmaydi:
 - 3.1.1. Majburiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta polisida ko‘rsatilmagan transport vositasidan foydalanishda zarar etkazish;
 - 3.1.2. Ma‘naviy etkazilgan zarar va (yoki) boy berilgan foydaning o‘rnini qoplash bo‘yicha majburiyatning yuzaga kelishi;
 - 3.1.3. Transport vositasidan maxsus ajratilgan joylarda musobaqalar, sinovlar yoki o‘quv xaydovi davomida foydalanishda zarar etkazilganligi;
 - 3.1.4. Atrof muxitning ifloslanishi;
 - 3.1.5. Tashilayotgan yuk ta‘sirida zarar etkazilishi, agar bunday javobgarlik majburiy sug‘urtaning tegishli turi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sug‘urta qilinishi kerak bo‘lsa;
 - 3.1.6. Xodimlar xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarayotganida ularning hayoti yoki sog‘ligiga zarar etkazilishi, agar bu zararining majburiy sug‘urtaning tegishli turi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq qoplanishi lozim bo‘lsa;
 - 3.1.7. Xaydovchining o‘zi boshqarayotgan transport vositasiga va uning tirkamasiga, ularda tashilayotgan yukka va (yoki) ularga o‘rnatilgan asbob-uskunalarga zarar etkazilganligi;
 - 3.1.8. YUkni ortish yoki tushirishda, shuningdek transport vositasi mazkur transport vositasining egasi bo‘lgan korxonada, muassasa yoki tashkilot xududida harakatlanganida zarar etkazilganligi;
 - 3.1.9. Nodir va boshqa noyob buyumlar, me‘moriy yodgorliklar, qimmatbaxo va yarim qimmatbaxo toshlar va metallardan ishlangan buyumlarga, diniy qadriyatga ega buyumlar, san‘at asarlari, qo‘lyozmalar, noyob audiovizual asarlarga hamda intellektual faoliyatning boshqa maxsullariga, qimmatli qog‘ozlar, naqd pullarga, shu jumladan chet el valyutasiga shikast etkazilganligi yoki ularning yo‘q qilinganligi;
 - 3.1.10. Jabrlanuvchilarning sug‘urta hodisasi yuzaga kelishiga qaratilgan qasddan qilgan xatti-harakatlari natijasida etkazilgan zarar.
- 3.2. 3.1. bandida ko‘rsatilgan xollarda transport vositasi egalarining fuqarolik javobgarligi yuzaga kelgan taqdirda etkazilgan zararining o‘rni ular tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq qoplanishi kerak.

4. SUG‘URTA SUMMASI, SUG‘URTA MUKOFOTI

- 4.1. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta summasi har bir transport vositasi uchun **40.000.000 (qiriq million)** so‘m miqdorida belgilanadi. Ulardan:
 - a) jabrlanuvchi mol-mulkiga etkazilgan zarar uchun - sug‘urta summasidan 35 foizgacha;
 - b) jabrlanuvchi hayoti yoki sog‘ligiga etkazilgan zarar uchun - sug‘urta summasidan 65 foizgacha;
- 4.2. Sug‘urtalanayotgan transport vositasining soni **3 (u‘chta)** ta.
- 4.3. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha umumiy sug‘urta summasi **120.000.000 (bir yuz yigirma million)** so‘m.
- 4.4. Har bir avtomobil uchun sug‘urta summasi sug‘urta polisida ko‘rsatiladi.
- 4.5. Sug‘urta mukofoti bo‘yicha hisob-kitoblar har bir transport vositasi uchun O‘zR VMning 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli qarori bilan tasdiqlangan transport vositalari egalarining fuqarolik majburiyatlari sug‘urtasi qoidalari asosida amalga oshiriladi.
- 4.6. Ushbu shartnomaga taqdim etilgan ariza-anketalar asosida umumiy sug‘urta mukofoti summasi **360.000 (u‘ch yuz o‘ltmish ming)** so‘m.
- 4.7. Sug‘urta mukofoti ushbu shartnoma tuzilgan ilova sanasidan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida bir yo‘la to‘lanadi.
- 4.8. Agar majburiy sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta tovonini to‘langan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi sug‘urtalovchidan sug‘urta tovonini to‘lash to‘g‘risidagi xabar olingan kundan boshlab ikki xafia muddatda to‘langan sug‘urta tovonini summasiga va sug‘urta shartnomasining amal qilish muddatiga mutanosib ravishda sug‘urta mukofotini to‘laydi.

5. SUG'URTA SHARTNOMASI MUDDATI

- 5.1 Ushbu majburiy sug'urta shartnomasi sug'urta mukofoti to'langan paytdan boshlab kuchga kiradi, shartnomaning amal qilish muddati sug'urta polisida ko'rsatiladi.
- 5.2 Sug'urta polisi va maxsus davlat belgisi sug'urta mukofoti to'langandan keyin beriladi.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:
 - 6.1.1. Sug'urta mukofotini ushbu shartnomaning 4.5. bandiga asosan to'lab berishi.
 - 6.1.2. Xaydovchilarni (xodimlarni) YTX sodir bo'lganda DYXXB xodimlarini kutishi va jabrlanuvchi (uning merosxuri yoki huquqiy vorisi)ga majburiy sug'urta polisi nusxasini taqdim etishlik to'g'risida ogohlantirishi.
 - 6.1.3. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda:
 - YTX sodir bo'lganda kechiktirmasdan uzog'i bilan 72 soat ichida yozma ravishda sug'urta polisi nusxasi bilan sug'urtalovchini sug'urta hodisasi to'g'risida O'zR VMning 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli qarori 6-ilovasiga muvofiq xabardor etish.
- 6.2. Sug'urta qildiruvchining Huquqlari:
 - 6.2.1. Sug'urta qildiruvchi jabrlanuvchiga etkazilgan zararining o'rnini sug'urtalovchining yozma roziligi bilan o'z hisobidan qoplasa, sug'urta qildiruvchi etkazilgan zararining o'rnini qoplash tartibida o'zi amalga oshirgan sug'urtalarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgandan sug'urta tovonini olishi mumkin.
- 6.3. Sug'urtalovchining majburiyatlari:
 - 6.3.1. Jabrlanuvchiga (uning merosxuriga yoki huquqiy vorisiga) yoki sug'urta qildiruvchiga (agar sug'urta tovonini o'z hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa) shartnomada ko'rsatilgan xollarda sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan e'tiboran besh ish kuni mobaynida amalga oshirish;
 - 6.3.2. Sug'urta polisi va maxsus davlat belgisi blankasi yukotib qo'yilgan takdirda uning dublikatlarini taqdim etish. Dublikatlar sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchi murojaat qilgan va u dublikatlarni tayyorlash bo'yicha harajatlarni to'lagan kundan boshlab ikki kun muddatda beriladi.
- 6.4. Sug'urtalovchining huquqlari:
 - 6.4.1. Agar shikastlangan mol-mulkni yoxud uning koldiklarini kuzdan kechirish va mustaqil ekspertiza qilishga (baxolashga) qadar ushbu shartnoma talablariga muvofiq amalga oshirilgan shu mol-mulkni ta'mirlash yoki uning koldiklarini utilitatsiya qilish sug'urta hodisasining mavjudligini va majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha o'rni qoplanishi lozim bo'lgan zararlarning miqdorini tugri aniqlash imkonini bermasa, sug'urtalovchi jabrlanuvchiga (uning merosxuriga yoki huquqiy vorisiga) sug'urta to'lovini yoki uning bir kismini to'lashni rad etishga haqli.

7. SUG'URTA TOVONINI TO'LASH TARTIBI

- 7.1. Sug'urta tovonini etkazilgan zarar miqdorida, lekin sug'urta pulidan oshmagan miqdorda sug'urtalovchi tomonidan bevosita jabrlanuvchiga (uning merosxuri yoki huquqiy vorisiga) to'lab beriladi.
- 7.2. Agar sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta tovonini to'lovlari bir nechta jabrlanuvchiga (ularning merosxurlariga yoki huquqiy vorislariga) tulanishi kerak bo'lsa va ularning sug'urtalovchiga bildirilgan talablari summasi sug'urta tovonini miqdoridan ortiq bo'lsa, sug'urta tovonini har bir jabrlanuvchining barcha jabrlanuvchilar (ularning merosxurlari yoki huquqiy vorislari) talablarining umumiy summasidagi ulushiga mutanosib ravishda tulanadi.
- 7.3. Agar sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxs) jabrlanuvchiga etkazilgan zararining urnini sug'urtalovchining yozma roziligi bilan uz hisobidan qoplasa, sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxs) etkazilgan zararining o'rnini qoplash tartibida o'zi amalga oshirgan to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etganidan keyin sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga sug'urta to'lovini tulaydi.
 - Ushbu xolat bo'yicha quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:
 - sug'urta polisi;
 - zarar etkazilganligi faktini va zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar (yul-transport hodisasi to'g'risidagi xulosa yoki qaror, tibbiyot muassasasi ma'lumotnomasi yoxud hayotga yoki sog'liqqa zarar etkazilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, o'lim haqidagi dalolatnoma yoxud guvohnoma);
 - mol-mulkka zarar etkazilganligi faktini va zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar (tijorat dalolatnomalari, yuk xatlari, asosiy vositalar daftaridan ko'chirmalar, to'lov hujjatlari, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish uchun tuzilgan shartnomalar, mol-mulkni mustaqil baxolash dalolatnomalari va boshqa shu kabilar);
 - jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat;
 - meros huquqini yoki huquqiy vorislikni olganliklarini, shuningdek merosxurlarning shaxsini yoki huquqiy vorislarning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (agar sug'urta tovonini jabrlanuvchining merosxurlariga yoxud huquqiy vorislariga tulanishi kerak bo'lsa).
 - bankning to'lov amalga oshirilganligi to'g'risidagi belgisi qo'yilgan to'lov topshiriqnomasi nusxasi;
- 7.4. Sug'urta tovonini sud harajatlari, shuningdek jarimalar va boshqa shu kabi to'lovlarni qoplamaydi.
- 7.5. Sug'urta tovonini to'lash sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan e'tiboran besh ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

8. REGRESS TARTIBIDA TALAB QILISH HUQUQI

- 8.1. Sug'urta qildiruvchi zarar etkazgan shaxsga (sug'urta qildiruvchiga, fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxsga) uzi to'lagan sug'urta to'lovi miqdorida quyidagi xollarda regress tartibida talab qilish huquqiga ega, agar:

- a) mazkur shaxsning qasdi oqibatida jabrlanuvchining hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga zarar etkazilgan bo'lsa;
 - b) zarar transport vositasi mazkur shaxs tomonidan mastlik xolatida yoki giyoxvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida boshqarilayotganda etkazilgan bo'lsa;
 - v) mazkur shaxs uzi foydalanayotganda zarar etkazgan, transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lmagan bo'lsa;
 - g) mazkur shaxs yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joydan yashiringan bo'lsa;
 - d) mazkur shaxs transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan shaxs sifatida majburiy sug'urta shartnomasiga kiritilmagan bo'lsa (transport vositasidan fakat majburiy sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan xaydovchilar foydalanishi sharti bilan majburiy sug'urta shartnomasi tuzilganda);
 - e) sug'urta hodisasi mazkur shaxs transport vositasidan majburiy sug'urta shartnomasida nazarda tutilmagan aniq davrda foydalanayotganda sodir bo'lgan bo'lsa (transport vositasidan majburiy sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan davrda foydalanish sharti bilan majburiy sug'urta shartnomasi tuzilganda).
- 8.2. Bunda sug'urtalovchi mazkur shaxsdan sug'urta hodisasini ko'rib chiqishda qilingan harajatlarni qoplashni ham talab qilishga haqlidir.

9. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 9.1. Ushbu shartnoma majburiyatlari bajarilganda yoki lozim darajada bajarilmaganda sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi amaldagi O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi bo'yicha javobgar bo'ladilar.
- 9.2. Shartnoma shartlarini bajarishda yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan, agar kelishmovchilik yuzaga kelsa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan hal etiladi.

10. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Sug'urtalovchi:

«SEMURGINsURANCE» MCHJ QK

«NUKUS» SUG'URTA MARKAZI

Adres: Nukus sh. T. Kaipbergenov k.,

59 uy 10 x.

tel/faks: +998 98 302 79 19.

h/r: 2021 4000 0052 0466 7057

Asaka bank AO Shayxontoxur filiali

Tashkent sh.

MFO 00969

STIR 307281137 OKED 65120

Sug'urta qildiruvchi:

“QORAQALPOQYULKUKALAM”

QR Nukus sh. Yulchilar MFY r/u

h/r 2021 0000 1008 1966 5001

INN: 305 168 593, MFO 00582

QQ Milliy bank

Tel: (88) 357-95-55

Sug'urtalovchi nomidan:

«NUKUS» SUG'URTA MARKAZI

Direktori

Tureshev P.P.

imzo/m.o.



Sug'urta qildiruvchi nomidan:

Korxonona boshlig'i

R.S.Urazov

imzo/m.o.